

# **International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science**

Hosted Online from Vienna, Austria  
on October 20<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

## **USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING IT AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM**

Abdullayev Shaxboz Solijon o‘g‘li

Teacher of the Department of Information Technologies of Fergana State University

### **Abstract**

In this article, you can get acquainted with a number of recommendations for using interactive methods in teaching informatics and information technologies in the educational system, getting students interested in science, and correctly expressing the question when asking them a question.

**Keywords:** informatics and information technologies, interactive teaching, higher education, verbal and non-verbal methods, pedagogue.

## **TA’LIM TIZIMIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

Abdullayev Shaxboz Solijon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ta’lim tizimida informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish, o‘quvchilarni fanga qiziqtirish va ularga savol berganda savolni to‘g‘ri ifoda qilish bo‘yicha bir qancha tavsiyalar bilan tanishishingiz mumkin.

**Kalit so‘zlar:** informatika va axborot texnologiyalari, interfaol o‘qitish, oliv ta’lim, verbal va noverbal usullar, pedagog.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o‘sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi qo‘yilgan. Ushbu masalaning hal etilishi ko‘p jihatdan o‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llashga ham bog‘liq.

Avvalo “interfaol” (interaktiv) tushunchani aniqlashtirib olaylik. "Interaktiv" degan so‘z inglizcha "interact" so‘zidan kelib chiqqan. "Inter" – o‘zaro, "act" – ish ko‘rmoq, ishlamoq degan ma’nolarni anglatadi. Shunday qilib, interfaol o‘qitish – bu, avvalambor

# **International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science**

Hosted Online from Vienna, Austria  
on October 20<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

muloqotli o‘qitish bo‘lib, jarayonning borishida o‘qituvchi va o‘quvchi orasida o‘zaro ta’sir amalgalashadi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining to‘xtovsiz rivojlanishi va turli sohalarda joriy qilinishi shubhasiz jamiyat taraqqiyotiga olib keladi. Zero, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda esa «Jahon sivilizatsiyasiga dahlor bo‘lgan zamonaviy bilimlarni egallamay turib mamlakat taraqqiyotini ta’minlash qiyin».

Informatika fanlarini o‘qitish metodikasi - bu informatikani o‘quv predmeti sifatida hamda turli yoshdagi o‘quvchilarga informatika fanlarini o‘rgatish jarayonining qonuniyatlarini o‘rganadigan fandir.

Interfaol o‘qitishning mohiyati o‘quv jarayonini shunday tashkil etadiki, unda barcha o‘quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Darslardagi interaktiv faoliyat o‘zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiyligi, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birlashtirishga olib keladigan diologli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Interfaol metod bitta so‘zga chiquvchining, shuningdek, bitta fikrning boshqa fikrlar ustidan dominantlik qilishligini chiqarib tashlaydi.

Oliy ta’limda informatika fanlarini o‘qitishning maqsadi:

- informatika fanlari o‘qituvchilarini informatika sohasi bo‘yicha turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazishga tayyorlash;
- oliy ta’limda informatika fanlarini o‘qitish metodikasiiga doir bilimlarini takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish, joriy etish, ta’lim amaliyotida qo‘llash va yaratish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- informatika fanlari o‘qituvchilarini ta’lim-tarbiya tizimini axborotlashtirishning zamonaviy yo‘llari va ulkan istiqbollari haqida tassavvurlarini rivojlantirish hamda chuqurashtirishdir;
- pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini informatika fanlarini ijodiy o‘qitish va o‘zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma vamalakalari bilan qurollantirish.

Ta’lim soxasida texnologiyalardagi asosiy ziddiyatlardan biri bo‘lib muammolarni hal etishda loyihalash bosqichidagi aniq bir muhandislik ishlanmasi yo‘qligi hisoblanadi. Ta’limdagisi texnologiya ichiga "Dizayn va texnologiya" hamda "raqamli texnologiyalar" kirib, raqamli texnologiyalarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari hisob-kitob tafakkurini shakllantirishda "Konstruksiyalash va texnologiya" fani kompyuterli ilmdan

# **International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science**

Hosted Online from Vienna, Austria  
on October 20<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

chiqib muhandislik dasturiy ta'minot yoki boshqa hisoblash amaliy fanlar sifatida joriy qilinmagan. Shunday qilib hisob kitobli tafakkur bu nazariy usul, unda tafakkur va dunyoni tasavvur etish shakllari bayon etilib, kompyuter fanlari yordamida nazariy bilimlar amalda aks ettiriladi.

Informatika o'quv predmeti sifatida informatika fani va uning rivoji bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun «Informatika o'qitish metodikasi» fani birinchi navbatda informatika fanining metodologiyasiga asoslanadi. O'zining xulosalarida u ta'lim va tarbiyaning umumiyl tamoyillariga tayanadi. Ma'lumki, ushbu tamoyillar pedagogika va didaktika tomonidan ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, «Informatika o'qitish metodikasi» fani fiziologiya va psixologiya fanlari tomonidan qabul qilingan qonuniyatlardan ham bevosita foydalanadi.

Shuning uchun interfaol o'qitish guruhlarida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ikkita asosiy funksiyalar amalga oshirilishi lozim:

- tarbiyaviy masalalarni yechish (hamkorlikdagi ish jarayonida guruh a'zolariga yordam ko'rsatish, xulq-atvor normalarini shakllantirish);
- o'qitishning pragmatik jihatni qo'yilgan o'quv masalasini yechishlikning shartligi. Ushbu faktini alohida qayd etish lozimki, o'qitishning barcha interfaol usullarini verbal (og'zaki) va noverbal usullarga ajratish mumkin.

Verbal, ya'ni og'zaki usullarga quyidagilar kiradi:

- vizual: yuz ifodasi, ko'zlar orqali aloqa, harakatlar, gavdaning holati;
- akustik: intonatsiya, nutq tempi, ovoz balandligi, membr, nutqiy pauzalar, tovush balandligi va hokazo.

Verbal usullar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- "oxiri ochiq" bo'lgan savollar, ya'ni yagona "to'g'ri" javobga emas, balki muammo (savol) bo'yicha turli nuqtai nazarlarni bayon qila olishga yo'naltirilgan savollarni bera olish qobiliyati;
- o'quvchilar bilan muloqotda o'qituvchi tomonidan o'zining nuqtai nazarini hal qiluvchi nuqtai nazar deb emas, balki neytral deb aniqlanishi. Bu narsa mashg'ulot paytida o'quvchilarga qo'rmasdan "to'g'ri" va "noto'g'ri" nuqtai nazarlarini bayon etish imkoniyatini beradi;
- mashg'ulotning tahlil va o'z-o'zini tahlil qilishga tayyorgarlik.

O'qituvchining savoli – bu o'quvchining tafakkurini bostirish yoki rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Savolning ikki hil turi mavjud (interfaol o'qitish nuqtai nazaridan).

# **International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science**

Hosted Online from Vienna, Austria  
on October 20<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

- o‘quvchining fikr doirasini chegaralab, uni bilganchilarni oddiy qayta tiklashga keltirib qo‘yadigan savollar. Bunday savollar fikrlash jarayonini to‘xtatib turishga xizmat qilib, o‘quvchiga uning fikri hech kimni qiziqtirmasligini tushunib yetishiga olib keladi;
- fikr yuritish, o‘ylash, tasavvur qilish, yaratish yoki sinchiklab tahlil etishga undovchi savollar. Bunday savollar fikrlash darajasini ko‘tarish bilan birga, o‘quvchilarda ularning ham fikri qimmatga ega ekanligiga ishonch uyg‘otadi.

Quyida savolni to‘g‘ri ifoda qilish bo‘yicha bir qancha tavsiyalar keltiriladi.

1. Savollarni aniq va qisqa qo‘yish lozim.
2. Bitta savol orqali faqat bir narsani so‘rash.
3. Savol mavzu bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak.
4. Savoldagi barcha so‘zlar o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi kerak.
5. Har bir savolga bir nechta javob bo‘lishiga harakat qiling.
6. Aniq narsalardan umumiyya borishga harakat qiling. Bu holat o‘quvchilarni o‘ylashi va savolga javob berishida yengillik tug‘diradi.
7. Faqatgina "ha" yoki "yo‘q", "to‘g‘ri" yoki "noto‘g‘ri" degan javoblar beriladigan savollarni berishdan saqlaning.
8. O‘quvchilarga o‘z tajribalariga tayangan holda javob beradigan savollarni bering.
9. O‘zining nuqtai nazarini bildiradigan savollarni bering.
10. Qo‘ylgan savolga javob berilganda, o‘quvchilardan "Nima uchun shunday deb o‘ylaysiz?" deb so‘rab turing.

Interfaol metodlar bo‘yicha o‘qish jarayonini tashkil etilganda e’tibor berilishi kerak bo‘lgan yana bir holat, bu vazifaning mazmuni. Vazifaning mazmuni o‘qitishning an‘anaviy shakllariga qaraganda boshqacharoq bo‘lishi lozim. Masalan, guruhga darslikdagi ma’lum bir paragraf konspektini olish vazifa sifatida berilishi maqsadiga muvofiq emas, chunki har bir o‘quvchi bu ishni o‘zi, mustaqil bajarishi mumkin. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, muammoni nostandart qo‘yilishigina, o‘quvchilarni birbiridan yordam olishga, boshqalarning ham fikrini bilishga, natijada esa, guruhning umumiyy fikrini shakllantirishga undaydi. Masalan, dasturlashga oid masala yechilganda, uni kichik masalalarga bo‘lish mumkin. O‘quvchilarni ham kichik guruhlarga bo‘lish va har biriga kichik masalani yechishni va dasturini tuzishni tavsiya etish mumkin. Dars oxirida guruhlarning kichik masalalarini yechimlari asosida berilgan masala yechishini tashkil qilish lozim. Buning natijasida bitta dars davomida murakkab masalani yechish va unga ko‘proq o‘quvchilarni jalb qilish mumkin bo‘ladi.

# **International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science**

Hosted Online from Vienna, Austria  
on October 20<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. «Talqin» 2004. 187-b.
2. Kozlova V.T., Akimova M.K. Diagnostiki umstvennogo razvitiya detey. – SPb.: Piter, 2006. – s. 67
3. <http://ebook.tsue.uz/public/ebooks/informatika-fanini-o-qitish-metodikasi>
4. <https://tmetod.uz/majmua/oliy-talimda-informatika-fanlarini-oqitish-metodikasi-3/>
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

